



Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgandi.

Prezident topshirig'iga oid vazifalar belgilab olindi



Unda yurtboshimiz oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy izlanishlarning hayotiyliigi va samaradorligiga e'tibor qaratib, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor ilm-fan yutuqlarida o'z ifodasini topishi kerakligini ta'kidlagandi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodir Sayfullayev boshchiligidagi o'tkazilgan yig'ilishda davlat rahbari tomonidan muhandislik kadrlarini tayyorlash tizimida mavjud yutuq

va kamchiliklar qayd etilgani, shu bilan birga, kelgusida sohada amalga oshirish lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilganini aytib o'tildi.

Yig'ilish davomida professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarining tizimni rivojlantirish bo'yicha taklif va mulohazalari tinglandi. Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan farmon va hujjatlar ijrosi yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishlash bo'yicha mutaxassis Umid Abraykulov axboroti eshitildi.

Shuningdek, reyting ko'rsatkichlarining bajarilish holati va tijoratlashtirish yo'nalishida ishlab topilgan mablag'lar sarhisobi qilinib, o'quv-uslubiy, ilmiy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida belgilab olingan vazifalar ijrosi yuzasidan mas'ullar hisoboti tinglandi.

Muhokama so'ngida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda barcha jipslashgan holda harakat qilishi ta'kidlab o'tildi.

O'ZDSMI matbuot xizmati



– Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom – umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrliidir, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Prezident yoshlar bilan muloqot qildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilish avvalida ishlar samaradorligi ko'rib chiqildi. Oxirgi yetti yilda yoshlarga oid 100 dan ziyod qonun va qarorlar qabul qilinib, 200 dan ortiq imtiyozlar berilgani qayd etildi.

Birgina ta'lim kreditidan 151 ming nafar yoshlar foydalangan. Ehtiyojmand oiladan bo'lgan yana 110 ming talabaning shartnoma to'lovi to'lab berilgan.

“El-yurt umidi” jamg'armasi orqali AQSH va Buyuk Britaniyaning eng nufuzli universitetlarini 50 nafar yigit-qiz bitirdi. Bugungi kunda ularda o'qiyotgan vatandoshlarimiz 200 dan oshdi. Umuman, 110 ming yoshlarimiz xorijda tahsil olayapti.

2



Muborakbod etamiz



O'ZDSMI talabasi “Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohibi bo'ldi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, kino, televideniye va radio san'ati fakulteti, ovoz rejissyorligi va opertorlik mahorati kafedrası, kino-teleoperatorlik 4-bosqich sirtqi ta'lim yo'nalishi talabasi Azizbek Sobirov Prezidentin角度 farmoni bilan «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Talabamizni ushbu yuksak e'tirof bilan samimiy muborakbod etamiz!

Kurs rahbari s.f.d (PhD), professor, kinooperator-kinoorejissyor Iqbol Meliqo'ziyev

Bugungi sonda:

Yuraklarda suzgan oq kema

Misol uchun, bolaning yolg'izligi, o'z otasiga sog'inchi, O'rozqulning farzandsizligi, Mo'min cho'l iztiroblari. Oq kema asaridagi obrazlar timsolini xuddi hayotda bo'lgan va bo'layotgan inson haqiqatlariga qiyoslayman. Mo'min chol o'z qarashlariga qarshi chiqib, ona bug'uni ovlab, ziyofat qilayotganidagi bolaning ahvolini tasavvur qiling. Naqadar dahshatli manzara...

3

Jahongir Qosimov rejissurasi

Biz, biroq bo'lsa-da, ushbu hurmatli rejissyorimiz haqida ba'zi mulohazalarni yuritdik. Umid qilamanki, shu vaqtgacha bir-biridan ajoyib filmlarni tomoshabinlarga tuhfa qilgan ijodkor, keyingi faoliyatida ham bizga o'ziga xos va mos filmlarni taqdim qiladi.

4

San'atkorning umr yo'ldoshi

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, “Shuhrat” medali sohibi, ta'bir joiz bo'lsa, Oltiariqdagi har bir kishining saxovatli qahramoniga aylangan Oxunjon Madaliyevning xonadoniga kirib borar ekanmiz, ichkaridan istarasi issiqqina ayol – Habibaxon opa MADALIYEVA chiqib, qo'lini ko'ksiga qo'yib so'rashdi, uyga taklif qildi.

6



Prezident yoshlar bilan muloqot qildi



Prezident maktabining baholash tizimi 500 ta maktabda joriy qilinishi natijasida bir yilning o'zida bilimlarni o'zlashtirish 53 foizdan 60 foizga oshdi. Bu tizim yangi o'quv yilidan yana mingta maktabda joriy qilinadi.

Bu yil maktablarni 14 mingdan ziyod o'quvchi oltin va kumush medallar bilan bitirdi. "Katta beshlik" fan olimpiadalarda qo'lga kiritilgan medallar oxirgi to'rt yilda 2 karra ko'paydi.

"Oilaviy tadbirkorlik" dasturlari doirasida berilgan kredit evaziga 1 million yosh band bo'ldi. 205 ta "Yoshlar sanoat zonasi"da 1 ming 200 ta loyiha ishga tushirildi. Hozirda biznesdagi aylanma mablag'ini million dollardan oshirgan 1,5 ming nafar yosh tadbirkor bor.

Davlatimiz rahbari yoshlarda bilim va yangi g'oyalar ko'pligi, ularga sharoitlar yanada kengaytirilishini ta'kidladi. Jumladan, ular quyidagilar:

Mamlakatimiz jadal rivojlanishi uchun "to'rtinchi sanoat" kasblari juda muhim. Shu maqsadda yoshlarning fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, muhandislik, matematika bilan bog'liq kasblarga qiziqishini oshirish uchun yangi tizim bo'ladi. Oliy o'quv yurtlari qoshidagi jami 73 ta akademik litseyda tajriba tarzida "Xalqaro bakalavriat" va "A-Level" dasturi joriy qilinadi. Bu dasturlar asosida sertifikat olgan o'quvchilar o'sha oliygohga imtihonsiz, kontrakt asosida qabul qilinadi.

"SAT" testida 75 foizdan yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar mamlakatimiz universitetlariga ham grantga qabul qilinadi.

Nogironligi bo'lgan yoshlarga chet tili bo'yicha milliy sertifikat olishda kompyuterda imtihon topshirish sharoiti yaratiladi.

Yoshlarimiz xalqaro olimpiadalarning nazariy qismida har doim yuqori natijalarga erishsa-da, laboratoriya mashqlarini bajarishda pastroq ball olayapti. Shu bois endi Prezident maktablari agentligi qoshida Olimpiadalarga tayyorlash markazi ochilib, maxsus laboratoriyalar bilan jihozlanadi. Xalqaro olimpiadada qatnashuvchi terma jamoa reja asosida ushbu markazda tayyorgarlik ko'radi. Buning uchun har bir fan bo'yicha malakali olim va xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi.

Oliy ta'limning birinchi va ikkinchi kurslaridagi fanlar texnikumlar bilan uyg'unlashadi. Texnikumda yaxshi o'qigan yoshlarga xalqaro klassifikatorning tegishli darajasiga mos keluvchi diplom beriladi. Ularga oliygohni ikkinchi yoki uchinchi kursdan o'qishni kontrakt asosida davom ettirish imkoniyati beriladi. Kasbi bo'yicha malaka darajasi va ikki yillik staji bor yoshlar korxona tavsiyasi bilan kontrakt asosida oliy ta'limga qabul qilinadi.

Endi oliy o'quv yurti, vazirlik va korxonalarga tegishli laboratoriyalarning yagona onlayn platformasi yaratiladi. Bunday ilmiy markazlar Toshkent texnika, Samarqand va Urganch davlat universitetlarida ham tashkil qilinadi. Yosh olimlar tadqiqotlari uchun kerak bo'lgan uskuna, butlovchi qism va kimyoviy vositalar bo'ldan ozod qilinadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasida o'zini o'zi band qilgan yoshlar 50 mingdan oshdi. Qo'shilgan qiymat yaratib, xizmatlarni eksport qilayotgan bunday yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochib beriladi.

Xususan, 1-avgustdan boshlab, bu sohada o'zini o'zi band qilgan yoshlarga IT-park rezidenti maqomi beriladi. Ular uch yil muddatga barcha soliqlardan ozod qilinadi. IT-park tomonidan ularga tibbiyot, sport va ofisdan foydalanishi uchun "ijtimoiy karta" beriladi.

Yoshlarni katta daromad keltiradigan kasblarga o'rgatish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligi jamg'armasi Yoshlar agentligi tizimiga o'tkaziladi. Loyihaning tayyor biznesga aylanib, daromad keltirishgacha barcha jarayonda ko'maklashiladi. 14 ta tuman tanlab olinib, "to'rtinchi sanoat" kasblariga o'qitish markazi ochiladi.

Jamg'arma tomonidan hududlardagi Yoshlar sanoat zonalarida binolar qurilib, "sanoat ipotekasi" asosida yuqori qiymat yaratadigan loyihalar uchun yoshlarga 7 yilda bo'lib to'lash sharti bilan beriladi. Bunda birinchi yili to'lov undirilmaydi.

Har bir viloyatdagi bittadan Barkamol avlod markazida "Kreativ sanoat parklari" tashkil qilinib, ularga IT-park rezidentlari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi. Bu joylar yosh tadbirkorlar, ilm va biznes o'rtasida muloqot maydonchasi bo'ladi. Jamg'arma bu yerdagi yoshlarning "startaplari"ga uch yilga 100 million so'mgacha imtiyoz beradi.

Magistral yo'llar bo'yida 50 mingta ko'chma savdo nuqtalari tashkil qilinib, yoshlarga ijaraga beriladi. Bunda dastlabki 6 oyda yoshlar ijara haqi va soliq to'lamaydi.

Ma'lumki, yil boshida hokimlar, vazirlar va davlat tashkilotlari rahbarlariga sharoiti og'ir 4 million o'g'il-qiz birlashtirilgan edi. Manzilli ishlash natijasida, hayotda qiyinchilikka duch kelgan 420 ming yoshlar muammosi hal etildi, 65 mingining bandligi ta'minlandi, 15 ming nafari harbiy xizmatga yuborildi. Alohida e'tiborga muhtoj 1 million yoshlar sport bilan shug'ullanishni boshladi.

Shu tarzda, tarbiyasi og'ir, oilaviy ajrim yoqasidagi va jinoyatga moyilligi bor yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash zarurligi ta'kidlandi.

Maktab, kollej, oliy o'quv yurtlarining stadionlari, sport zali, basseyn va kutubxonalari mahalla yoshlari uchun doim ochiq bo'lishi belgilandi. Shuningdek, yoz mavsumida sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar va kino kunlari o'tkazilish aytiladi.

Mehnat yarmakalari tashkil qilinib, 350 ming yoshlarni ishga joylashtirish choralari ko'riladi. Shuningdek, 100 ming kishini qurilish ishlariga jalb qilish mumkin.

Qizlarga ko'maklashish, sharoitlarini yaxshilashga e'tibor davom ettiriladi. Og'ir sharoitga tushib qolgan xotin-qizlar uchun barcha hududlarda 1 xonali ijtimoiy uylar quriladi. Ular ishga joylashib, "oyoqqa turib olgunga qadar", ushbu uylarda 3 yil davomida bepul yashashi mumkin bo'ladi.

Sog'lig'i tufayli ishga qatnay olmaydigan qizlar xonadonida kasanachilik yoki masofaviy ish bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, uch yoshgacha farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy ta'lim olish imkoniyati yaratiladi.

Yig'ilish ochiq muloqot shaklida bo'ldi. Yurtimizning turli hududlaridan qatnashgan hamda chet ellarda o'qiyotgan yoshlar o'z fikr va takliflarini bildirdi.

Mutasaddilarga ularni umumlashtirib, farmon loyihasiga kiritish topshirildi.

"— Yoshlarimiz hayotda munosib o'rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to'liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz", — dedi Prezident.

"Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda, sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman"

Shavkat MIRZIYOEYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



VAZIR VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Yurtimizda madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan e'tibor hamda yaratilayotgan imkoniyatlar ayni davrda soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ishtirokidagi 23-iyun kuni "Yoshlar ijod saroyi"da bo'lib o'tgan "Vazir va yoshlar uchrashuvi"da madaniyat, san'at sohasida tahsil olayotgan hamda ijod qilayotgan yoshlar ishtirok etishdi. Madaniyat vazirini olqishlar bilan kutib olgan yigit-qizlar nigohida jo'shqin yoshlik, yaratuvchanlik, bunyodkorlikka bo'lgan intilish, g'ayrat, shijoat sezilib turibdi.

"Men hozir qarshimda atrofidagi voqealarga befarq bo'lmagan qiziquvchan, intiluvchan, g'ayratli, shijoatli yoshlarni ko'rib turibman", — dedi Ozodbek Nazarbekov.

Uchrashuvda bugungi islohotlar jarayonida yoshlarning alohida o'rni borligi va sohadagi bunday islohotlarda yoshlarning g'oyalarini, ularning amalga oshirayotgan ishlari bilan yaqindan tanishish muhimligi ta'kidlandi: *"Albatta, sizlarning fikringiz, ishlab chiqarish va ilmda erishayotgan yutuqlaringizni yuzmayuz turib eshitish bizni yagona maqsadlarda birlashtiradi. Bugun madaniyat va san'at sohasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz sohadagi har bir ishimizda yoshlarimiz faolligini ko'rish. Buning uchun sizlardan o'z mehnat faoliyatingizga mehr qo'yish, yaxshi o'qish va yangi g'oyalar ustida tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Biz, ya'ni vazirlik sizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz".*

Vazir va yoshlar uchrashuvida 2023-2024-yilida amalga oshirilgan

ishlar va erishilgan yutuqlar haqida gapirib o'tildi. Shuningdek, vazir kelgusidagi rejalar va belgilangan vazifalar haqida so'z yuritib, 2024-yilda yoshlarga yaratiladigan yangi imtiyoz va imkoniyatlar bilan tanishtirdi. Muloqotda ishtirok etgan barcha soha vakillari bevosita o'z savol, taklif hamda murojaatlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Uchrashuvda Ozodbek Nazarbekov yig'ilish ishtirokchilarining erishayotgan yutuqlari va ularning takliflari bilan qiziqdi. Jumladan, O'zDSMI tayanch doktoranti Iroda Berdiyeva ham mazkur ochiq muloqotda ishtirok etib, o'z fikr va takliflarini bildirdi.

"Hozirgi kunda men, yoshlarimiz orasida media savodxonligini takomillashtirish borasida ilmiy ishimni o'rganib, yozmoqdaman., lekin, o'zimning bu ilmiy-tadqiqot ishimga xorij tajribasini ham o'rganib, kiritmoqchiman, shuning uchun sizdan bizni qo'llab-quvvatlashingizni so'rayman", — dedi tadqiqotchi Iroda Berdiyeva.

Bu taklif va fikrlarni eshitgan, Madaniyat vaziri *"Siz menga bilimga chanqoq, o'zini va vatanimizni kelajagi uchun yonib yashadigan, har tomonlama intellektual salohiyatga ega, o'zingizga o'xshaydigan o'n nafar tadqiqotchilardan kamanda qilsangiz, meni o'zim sizlarni Yevropaga stajirovkaga yuboraman"* — dedi, Ozodbek Nazarbekov.

Uchrashuvda shu kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilib, yoshlarning fikr-mulohazalari tinglandi. Ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarimizning intellekti, kuch-g'ayrati, shijoati barcha marralarni, yuksak cho'qqilarni zabt etishga qodir ekaniga ishonch bildirildi.

Tashkil etilgan "Vazir va yoshlar uchrashuvi" yoshlar uchun o'ziga xos kuch va g'ayrat ulashgan muloqot bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Uchrashuv so'ngida, Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov yoshlar bilan birga "Mendirman o'sha" qo'shig'ini birga ijro etishdi.

BAXTIYOR SAMIYEV,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH" TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

Yuraklarda suzgan

oq kema

“Oq kema” asarining muallifi qirg'iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovdir. Chingiz Aytmatov Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tavallud topgan. Qirg'iz adabiyotining yorqin namoyondasi Chingiz Aytmatov o'z asarlarida xalq rivoyatlari va qissalaridan juda o'rinli foydalangan adibdir. Qirg'iz xalqining insoniy fazilatlarini, urf-odatlarini yozuvchining mashhur asarlarida hikoya qilinadi. Bu asarlar jumlasiga biz “Oq kema” qissasini kiritsak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

“Oq kema” 1970-yil “Новый мир” jurnalida chop etilgan. “Oq kema” bir necha tilga, jumladan, o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Bu asar jonli tasvir va hikoyachilik jihatidan o'quvchi diqqatini butkul o'ziga tortadi. “Insonni tug'ish va o'stirish qanchalar qiyin, o'ldirish esa oson” Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asari samimiyligi bilan kitobxon e'tiborini jalb qiladi. Bu qissada insoniy go'zallik, ezgulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. Bu asarda bir bolaning o'y-xayollari, otasiga bo'lgan sog'inchi, uning baliqqa aylanib qolishini istashi-yu, oq kemaga, otasining huzuriga borib uni kirishga bo'lgan ishtiyoq kabilar bayon etiladi.

“Oq kema” asarida bolaning fikrlari shunchalik hissiyotga boy tarzda tasvirlanadiki, go'yo o'zimizni o'sha vaziyatga tushib qolganday his etamiz. Bu asar zahirida chuqur ma'no mujassam. Qissada oila masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Misol uchun, bolaning yolg'izligi, o'z otasiga sog'inchi, O'rozqulning farzandsizligi, Mo'min cho'l iztiroblari. Oq kema asaridagi obrazlar timsolini xuddi hayotda bo'lgan va bo'layotgan inson haqiqatlariga qiyoslayman. Bola beg'ubor qalbg'a o'xshaydi. U yomonliklarni va qabihlikni ko'rsa nafratlanadi, kirlanadi, o'lib boradi. Masalan, bolaga shoxdor ona bug'u haqida rivoyat aytib, o'zlarining bosh bo'g'ini deya ishontirib, og'ir vaziyatlarda qabiladoshlarini faqat ona bug'ugina asray oladi, deya ta'kidlagan Mo'min chol o'z qarashlariga qarshi chiqib, ona bug'uni ovlab, ziyofat qilayotganidagi bolaning ahvolini tasavvur qiling. Naqadar dahshatli manzara...

Endi asardagi ramzlarga e'tiborimizni qaratsak. Oq kema – to'kislik, diyor

ramzi. Bolaning o'ylashicha, oq kemada dadasi kapitan, matros bo'lib ishlaydi. Shuning uchun bola baliqqa aylanib, oq kemaga borishni xayol qilardi. Mo'min chol mehnatkash, aqlli inson unda oliyanob fazilatlarini mavjud, biroq har doim ham to'g'ri yo'ldan yura olmaydi. Bunga sabab esa qizining farzandsizligi. Bola qalbi naqadar beg'ubor, samimiy bo'ladi, eng muhimi bola hech qachon aldamaydi. Chingiz Aytmatovning bu qissasi Issiqko'l bo'yida yashovchi 7 yoshli yetim bolaning sof qalbi, olami, sodda dunyoqarashi va haqiqatgo'yiligi haqida hikoya qiladi. Bola o'z olamida yashardi, uni hech kimga ziyoni yetmasdi. U bobosi Mo'min cholning samimiy ertaklariga ishonardi. Bobosi aytib bergan shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni o'z hayotiga bog'liq holda tasavvur etardi. Hayot qiziq! Kimlardir tirnoqqa zor, ayrim kimsalar esa, farzand deb atalmish ne'matning qadriga yetmay, undan voz kechadilar. Bu ikki qarama-qarshilik asarda yonma-yon tasvirlangan. Boboning to'ng'ich qizi necha yillardan buyon farzandsizlikdan aziyat chekayotgan bo'lsa, kichik qizi o'z ko'zqorachig'idan voz kechib bolasini tashlab ketadi. Bunday insonlar hayotda ham uchraydi.

Asarda bolaning ismi ham keltirilmagan, ammo bola obrazi xolisona tasvirlangan. Bola qanchalar muloyim va sodda bo'lganini his qilsak bo'ladi. Balki otasiz o'sganligi uchun shunday bo'lgandir. Uning yolg'iz bobosi Mo'min cholgagina muhabbati, mehri bor edi. Boshqa bolalar tengdoshkari bilan o'ynasa, suhbatlashsa bizning qahramonimiz, portfel va durbinni o'ziga suhbatdosh deb bilardi. Sirlarini ularga aytardi. Bolaning supurgi o'tlarga rahmi kelardi. U uchun eng quvnoq gular bu pechakgullar. Eng birinchi dushmani esa

chaqirtikanak. Bola dunyosining naqadar samimiyligini ko'ryapsizmi? Bu asarni o'qigan sayin zavqing oshib boraveradi. U bobosini juda hurmat qilardi. Lekin bu munosabat oxirigacha bormadi. Asardagi Mo'min chol obrazini “ikki o't orasida qolgan obraz” deyish mumkin. U nabirasini butun borlig'i bilan yaxshi ko'radi, ardoqlaydi. Shu bilan birga qizining baxtsiz bo'lib qolishidan qo'rqadi, uning azob chekishini xohlamasdi. Shu sababli Mo'min chol bug'uni o'ldirishga majbur bo'ladi. Balki, shu bilan qizining baxtsizligiga barham bermoqchi bo'lgandir...

Asarning eng ta'sirli nuqtasi bu bug'uning nobud bo'lgani va bolaning bu dunyoda hech kimga ishonchi qolmagani edi. Uning oxirgi umidi sinadi, ya'ni bobosining ham bu ishma qo'li borlig'i, muhitni tark etishga undaydi. Qaysidir ma'noda bola orzusiga erishmoqchi bo'ladi. U baliqqa aylanib qolmoqchi, bu chirkin manzaradan uzoqqa, o'zining “Oq kema”si yoniga ketmoqchi bo'ladi. Lekin afsuski, hayot bunday beg'ubor bolaning orzusini ro'yobga chiqarishga ojizlik qildi. Uni abadiy yo'qlikka olib ketdi. Bola dunyoqarashi kattalar olamidan keskin farq qiladi. Bolalar dunyoni boshqacha ko'z bilan ko'rishadi. Kattalar dunyoda ko'rib yurganlaridan kelib chiqib fikrlasa, bolalar o'z orzulari og'ushida fikrlaydilar.

Asar qahramoni bola ham shu istaklar olamida barcha jonsiz narsalarni o'ziga jonli dardkash deb hisoblaydi. Bolaning birgina aybi, uning yetimligida edi. U bobosining mehriga to'ymas edi. Mo'min cholning ertagidagi bir fikrga e'tibor qarataylik: “Inson insonni urug'ini quritar ekan”. Ma'noga e'tibor beraylik, bu bilan yozuvchi insonning dushmani, kushandasi bu faqat inson ekanligini Mo'min chol va O'rozqul obrazida anglatgan. Yana asarda insonlarning tabiatga shavqatsizlarcha munosabati aks ettirilgan. Bir zamonlar odam bolasini boqib olgan, o'limdan qutqargan bug'u avlodi shavqatsizlarcha

**ASRORBEC RO'ZIMATOV,
“ASHULA VA RAQS” TA'LIM YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI**

o'ldiriladi. Yana bunga butun umr bo'yi bug'uga sig'inib yurgan Mo'min chol ham majburlanadi. Nima uchun bir murg'akkin bola bilgan gunoh, savobni “kattalar” bilmaydi? Yoki ba'zi insonlar shunchalar adolatsiz bo'lishdimikin, nega nohaqliklar son-sanoqsiz? Bu o'rinda Erkin Vohidovning she'ridan parcha keltirsam: “Qilding-u oyda xirom, har yerda qon to'kding harom, ushbu holingdan mudom xandon o'zing, giryon o'zing”.

Bola eshitgan ertaklarini hayotiga, hayotini ertakka aylantirishni orzu qilardi. U ezgulikka tashna edi, lekin bolaning o'gayligini bot-bot takrorlaydigan buvisidan yoki O'rozqul va Bo'key xoladan emas, balki til-zabonsiz gul-u tosh va oq kemadan topdi. Uning jajjigina, pok qalbini qanchadan-qancha O'rozqullarni bag'riga olgan dunyo sig'dirmadi. 1970-yilda yozilgan mazkur asar, xuddi Ekzyuperining kichkina shahzodasi kabi u ham odamlarni, olamni tark etdi. Chunki, undagi obrazlar, insonlar atrofimizda son-sanoqsiz. Ayniqsa, O'rozquldek g'alamislar borlig'i juda achinarli.

Ayolini xo'rllovchi, ichkilikka berilgan, o'z xatosidan uyalmaydigan bunday manfurlardan nafratlansak bo'ladi. Balki shuning uchun ham Alloh unga farzand ato etmagandir. Ota-onasi tashlab ketgan bolani jerkavermasdan, unga mehr nurini ulashganida, shirin so'z bo'lganida, balki Alloh uni farzand ne'mati bilan siylarmidi, ehtimol. Axir, Yaratgan barchamizni sinaydi. Sinov berib, sabrimizni, irodamizni qanchalar mukammalligini sinaydi. Bu taqdir sinovlaridan kimdir sevgi ila, kimdir yaxshilik ila, yana kimdir johillik bilan o'tadi. Xulosa shuki, buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov shu bir bola nigohicha dunyoga boqadi va bu dunyoda insonni chuqur o'yga toldiruvchi kirdikorlarga to'la ekanligini ko'rsatib beradi. Qalami o'tkir adib, ushbu asari orqali bu dunyoning “Oq kema”ga o'xshagan pok va to'kis bo'lishini istaydi.

Millatimiz fidoyilari

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qirimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qirim tatarlar o'rtasida vujudga kelgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atashgan.

Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi.

O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z “Xitobnoma”si (1898)da yaxshi bayon qilgan.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi

kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish, siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy – Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Xivada Boboxxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.



**HILOLA RAHMONOVA,
SIRTQI TA'LIM SHAKLI
“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI”
TA'LIM YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI**



Millatimiz fidoyilari



Jadidchilik umummilliy harakat sifatida:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.
2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqardi.

3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko'rgan "Turkiston muxtoriyati" bu yo'ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Shunday qilib, jadidlar tomonidan yangi maktablarga ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. "Usuli jadid" maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, handasa fanlari, rus, fors tillari - jami 17 tagacha fan o'rganilishi shartlari ilgari surildi. 1999-yilda Andijonda Shamsiddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar.

Yangi usul maktablariga asos solgan, darsliklar yaratgan Turkiston munavvarlaridan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1929) O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi. XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi maktab asoschisi, milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir edi.

Yigirmanchi asrda Turkistonni qoloqlikdan qutqarib, odamlarni savodli qilishga bel bog'lagan jadidchilik harakati namoyandalari yoshlarni Yevropaga o'qishga yuborib mamlakatni taraqqiyotga boshlaydigan kadrlar yetishtirishni maqsad qiladi. Shu maqsadda 1922-yilda Turkistondan ilk talabalar guruhi Germaniyaga o'qishga yuboriladi. Ular orasida bor-yo'g'i 2 nafar qiz: Maryam Sultonmurodova va Xayriniso Majid-xonovalar bor edi.

1922-yilda 70 nafar talaba Germaniyaga o'qishga yuboriladi. U payti hali yigitlar o'zining shahridan boshqasiga, qizlar esa, ehtimol, mahallasidan nariga o'tmagan edi. Ular o'zbek tilidan boshqa tilni ham bilishmagan hatto.

Yoshlar orasida o'qishga ketgan Vali Qayum ismli talabaning keyinchalik xotirlashicha, Abdurauf Fitrat talabalar o'qishga ketishidan oldin o'ziga yaqin bo'lgan shogirdlarini to'plab Samarqanddagi Amir Temur xixonasiga olib borib, ularning va'dasini oladi. Mazmuni quyidagicha edi: *"Biz yosh o'zbek yigitlari Germaniyaga borib, sanoat, aniq fanlar, qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassis bo'lib kelib, butun hayotimizni O'zbekiston ravnaqi uchun sarflaymiz"*.

Shu maqsadda 1922-yilda Turkistondan ilk talabalar guruhi Germaniyaga o'qishga yuboriladi. Katta orzular bilan boshlangan loyiha afsuski, hibslar, surgun, o'lim hukmi bilan yakun topadi.

Ularning ayanchli taqdiri haqida 18-may Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyida tashkil etilgan.

Millatimiz fidoyilari sabab ko'p merosimiz asrab qolindi, jiddiy islohotlar qilindi. Anvar Nazirovning ma'lum qilishicha, 1919-yili o'zbek tili yo'q bo'lib ketish xavfi juda katta edi. O'shanda Fitrat va Fayzullo Xo'jaev boshchiligidagi «Chig'atoy gurgungi» paydo bo'lib, o'zbek tili saqlanib qoldi.

Manbalarda keltirilishicha, O'zbekistonda 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha o'n ming etti yuz kishi qamoqqa olingan. Bulardan uch ming olti yuz o'n uch kishi qatl etildi, etti ming sakson etti kishi sakkiz-o'n yil muddatga qamoqqa tashlandi. O'sha yillari aholining barcha qatlamlari qatag'on girdobiga tushgan. Qatag'on, avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi.

Shu o'rinda vatandoshimiz Javlon Jovliev tomonidan Germaniyada tahsil olgan 70 nafar talaba hayotiga bag'ishlangan "Qo'rqma" asarini ta'kidlab o'tmoqchiman. Roman Germaniyada o'qigan talabalar, ular maslagi va fojiali qismati bugungi yoshlar maqsadi bilan bir taroziga tortiladi. Ushbu asarni sizlarga ham o'qishni tavsiya qilaman zeroki, o'tmishni bilmay turib, kelajakni yaratib bo'lmaydi.



Jahongir Qosimov rejissurasi

O'zbek kinosi tarixida o'zining o'chmas izini qoldirgan kinematografchilar yetarlicha topiladi. Ana shu buyuk shaxslar qatoriga biz bugungi kinomizning eng yetuk rejissyorlaridan biri Jahongir Qosimovni ham hech qanday istisnosiz qo'sha olamiz.

Jahongir Qosimov 1984-yilda Toshkent teatr va rassomchilik institutining "Drama rejissurasi" yo'nalishini tamomlagan. U kishiga afsonaviy kinorejissyor Shuhrat Abbosov ustozlik qiladi. Ana shu o'qish davri mobaynida qahramonimiz anchagina salobatli bir maktab tajribasini olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Undan keyingi davrda esa, unga Bahodir Yo'ldoshev rejissura sir-asrorlarini o'rgatadi. Jahongir Qosimov kino va teatrning eng dovruqli ikki arboidan rejissyorlik ilmini amaliy hamda nazariy jihatdan o'rganadi, fundamental bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

1984-2005-yillar davomida "O'ztele-radiokompaniya" tarmog'ida rejissyor, bosh rejissyor va yuqori darajali rejissyor sifatida muvaffaqiyatli faoliyat olib bordi. Ushbu bir necha yillik davr mobaynida o'ndan ziyod televizion ko'rsatuvlar va videofilmlarni suratga oldi. Ular orasida, 1989-yili yozuvchi Hayriddin Sultonning "Yo, Jamshid!" hikoyasi asosida ekranlashtirilgan "Changak" filmi tomoshabinlar orasida katta rezonansga sabab bo'ldi. Qimor o'ynashning ayanchli yakuni haqida hikoya qiluvchi filmda biz eng avvalo, asar mavzusiga mos sovuq atmosferani his qilamiz. Rejissyorimiz operator Ravshan Asqarov bilan birgalikda voqealar bo'lib o'tishi kerak bo'lgan makonlarni maksimal darajada tumanli va rutubatli qilib ko'rsatgan. Filmning boshqa jihatlarini aytishdan oldin, Jahongir Qosimov rejissurasidagi birinchi o'ziga xoslik hikoyaga mos vizual atmosfera ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan birga videofilmning aktyorlar jamoasi ham haqiqiy professionalardan tashkil topgan. Aynan ularning-da, realistik ijrosi o'z navbatida ushbu videofilm muvaffaqiyatining ajralmas omili hisoblanadi.

Ba'zi intervylardan ma'lum bo'lishicha, "Changak" videofilmining muvaffaqiyatidan keyin Qosimov bilan shaxsan Melis Abzalovning o'zi uchrashish istagini bildiradi va uni "O'zbekfilm" kinostudiyasi bilan tanishtiradi. Shu tariqa, sekin-asta yosh rejissyorning kinodagi faoliyati boshlanadi. 1992-yilda esa, Qosimov "Bechora odamlar" komediyasini suratga oldi. Ushbu filmning ssenariysi Zulfiqor Musoqov va Rihsivoy Muhammadjonovlarga tegishli. Filmidagi asosiy voqea ikki ko'shni o'rtasidagi nizo. Ushbu filmda men rejissuradagi boshqa jihatga e'tiboringizni qaratishni xohlardim, bu ham bo'lsa samimiylik. Balki, film rejissurasida ma'lum darajada kamchiliklar bordir, lekin rejissyor faoliyatining boshi ekani hisobga olinsa, unda muhim bir jihat samimiyatning borligi birinchi planga chiqadi. Zotan, mukammal filmning o'zi mavjud emas. Biz "Bechora odamlar" filmidagi samimiyatni nafaqat rejissurada, balki massaviy sahnalarda ishtirok etgan, o'sha davr odamlari va muhiti qiyofasida ham ko'ramiz. Demak, qahramonimiz rejissyorligining ikkinchi qirrasini-da kashf qildik, bu uning filmlaridagi muhim omil bo'lmish – samimiylikdir.

1998-yilda televizion seriallarimiz orasida hamon yuqori o'rinlarda turuvchi "Shaytanat" teleserialining dastlabki qismlari tomoshabinlarga taqdim etildi. Tohir Malik qalamiga mansub roman asosida ishlangan ushbu serialning

birinchi fasli aynan Jahongir Qosimov rejissyorligida suratga olingan. Seriallarda ko'p narsani dastlabki qismlar hal qilib berishi bor gap. Jumladan, film muhiti, aktyorlar ansambli, janr kabi omillar aynan birinchi qismlarda qo'yilgan yo'nalishdan keyin oydinlashadi. Rejissyorimiz ana shu mas'uliyatli vazifani uddasidan chiqqan, deb aytishimiz mumkin. "Shaytanat" haqida ayta turib, Jahongir Qosimovning badiiy asarlarga murojaat qiladigan rejissyor ekanini ko'ramiz. "Changak"dan farqli o'laroq asarning ko'lamini endi hikoya emas, roman edi. Bu esa, rejissyorning mas'uliyatini anchagina og'irlashtirishi hech kimga sir emas. Jahongir Qosimov rejissurasidagi o'ziga xosliklardan yana biri pishiq dramaturgiyaga ega badiiy asarlar ekranizatsiyasidir.

XXI asr boshining to'rtinchi yilida katta ekranlarga biz hikoya qilayotgan rejissyorning navbatdagi to'liq metrajli filmi chiqdi. Ushbu film "Dev bilan pakana" deb nomlandi. Uning ssenariyi muallifi yozuvchi Murod Muhammad Do'st bo'ldi. "Dev bilan pakana" ta'bir joiz bo'lsa, g'amgin komediyadir. Film bosh qahramoni Zulfiqor katta-katta maqsadlarga ega kichik bir odam. Muallif filmidagi o'zining dardi va keskin mulohazalarini ayni shu insonning tilidan aytadi. Oddiy, sodda bir qishloq odamiga bu berahm jamiyatda o'rin yo'qligini esa, Polvon personaji orqali ko'ramiz, anglaymiz. Qosimov rejissurasidagi Murod Muhammad Do'st bilan qilingan hamkorlik 2007-yilda ishlangan "18-kvadrat" filmida ham davom etdi.

Tog'li hududlardagi terror harakatlari mavzusida suratga olingan film o'zining o'tkir syujeti bilan kinomiz tarixida alohida o'rin egallaydi. Shu ikki film haqida ayta turib, e'tiboringizni ularda bosh rollarni ijro etgan aktyorlarga qaratmoqchiman. Zotan, Jahongir Qosimov rejissurasidagi keyingi o'ziga xoslik aynan aktyorlar bilan bog'liqdir. Ta'kidlash lozim, "Dev bilan pakana" filmidagi Obid Asomov va "18-kvadrat" filmidagi Said Muxtorov amplua jihatidan komik pozitsiyadagi aktyorlar hisoblanadilar. Lekin, rejissyor birida falsafiy nuqtayi nazar, ikkinchisida esa, jangovor muhit mavjud bo'lgan ushbu ikki dramatik filmida, qo'rqmasdan komedik aktyorlarni bosh rolga tasdiqlagan. Ikkala filmni ko'rib ham bir narsani aytish mumkin-ki, aktyorlarning ikkovi ham o'ziga berilgan vazifani, dramatik yukni keragicha his qilishgan va uni tomoshabinga yetkazib bera olishgan. Rejissyor aktyorlarni alohida hurmat qilishi va ularning kasbini juda yaxshi ko'rish haqida ko'p bora ta'kidlaydi.

"18-kvadrat" filmidan ikki yil o'tib, rejissyor o'z karyerasidagi poetik ruhga ega "Suv yoqalab" filmi suratga oldi. Yozuvchi Erkin A'zamning kinoqissasi asosida ishlangan badiiy filmda bosh rolni Rais Komilov ijro etgan. Film sobiq raisning umridagi so'nggi kunidagi voqealarni bizga namoyish qiladi. Rais erta tongdan g'alati bir tush ko'radi-yu, bezovtalik boisini bilolmay, qishloqdagi suv muammosini hal qilishga, buloqboshiga yo'l oladi. Kun davomida qahramonimiz ikki o'g'li bilan suv yoqalab borarkan, biz qishloqdagi turli odamlarga, turli voqealarga guvoh bo'lamiz.

O'z navbatida, rejissyor ham asar

ruhiyatiga mos vizual hikoyachiga aylanadi. Bu filmda biz rejissyorning kasbiy jihatdan keyingi hislatini ochamiz, bu kinoda hamisha o'z o'rniga ega bo'lgan san'at – musiqadir. Kinoni esda qolarli va tomoshabin qalbiga jo qiladigan muhim elementlaridan biri, to'g'ri tanlangan musiqiy kompozitsiyadir. "Suv yoqalab" filmi ayni poetik darajaga olib chiqadigan unsurlardan biri, kompozitor Artyom Kim tomonidan ishlangan musiqalar desak, adashmagan bo'lamiz. Qayd etish lozim, Artyom Kim film bosh qahramonining kechinmalari, asarning umumiy atmosferasini maksimal darajada his qila olgan. Bunda, albatta rejissyorning o'zni beqiyos. Zotan, ijodiy jamoadagi har bir ijodkorga asar hamda uning mohiyati haqida tushuntiradi, fikrlashadi. Bundan avvalgi: "Bechora odamlar", "Shaytanat", "Dev bilan pakana" kabi filmlarda ham rejissyor musiqaga alohida e'tibor bilan qaragan. Lekin, men Qosimovning ushbu jihatiga aynan "Suv yoqalab" filmi haqida ayta turib, to'xtalmoqchiman. Jahongir Qosimovning musiqaga nisbatan yondoshuvi ham uning rejissurasidagi o'ziga xos omillar qatoriga kiradi.

"Suv yoqalab" tomoshabinlarga taqdim etilgach, Jahongir Qosimovning rejissyorlik karyerasida ma'lum muddat tanaffus ro'y berdi. Rejissyorning katta kinoga qaytishi 2017-yilda ishlangan "Nazira" badiiy filmi edi. Bu katta ko'lamdagi biografik kinoepopeyadir. Filmning xronometraji salkam uch soatni tashkil qiladi. Film buyurtma mahsulot bo'lib, u qashqadaryolik birinchi tadbirkor ayol Nazira Shodmonova hayotining yoshlik chog'laridan to so'nggi yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Unda Naziraning yoshligi Shodiya Abduqodirova, kattaligi esa, Muyassar Berdiqulova tomonidan gavdalanitirilgan. "Nazira" badiiy filmida Qosimov ilk bor o'rta avlod operatori bo'lmish, Rustam Muratov bilan hamkorlik qildi. "Jazo", "Shabnam", "Janob hech kim" va boshqa filmlarda ishlagan ayni operator uchun ham rejissyorimiz bilan ishlash yangi tajriba edi.

Rang, yorug'lik bilan ishlash, operatorlik yechimlari, estetik darajadagi vizual kadrlar ayni shu hamkorlikning birinchi mahsuli sanaladi. Biz Jahongir Qosimovning filmografiyasidagi operatorlik ishiga "Dev bilan pakana", "18-kvadrat", "Suv yoqalab" kabi filmlar orqali ham ijobiy baho beramiz. Lekin, "Nazira" bu masalada yuqoridagilardan o'zgacharoqdek. Qosimov rejissurasidagi operatorlik ishlari ham biz diqqat qilishimiz kerak bo'lgan tamoyillardandir.

Jahongir Qosimov shubhasiz, o'zbek kinosining tarixi va bugungi kunidagi eng yaxshi rejissyorlardan biri. Yana bir narsani ta'kidlash lozim-ki, bu ijodkor turli janrlarda film suratga olishdan qo'rqmaydi. U kishining filmografiyasida komediya, g'amgin komediya, biografik drama, ekranizatsiya va shu bilan birga tarixiy janr ham mavjud. Jahongir Qosimov ta'bir joiz bo'lsa, "Bomba", "Ko'rgilik", "Faryod", "Jasur" kabi filmlarning ssenariyi muallifi ham hisoblanadi. Biz, biroq bo'lsa-da, ushbu hurmatli rejissyorimiz haqida ba'zi mulohazalarni yuritdik. Umid qilamanki, shu vaqtgacha bir-biridan ajoyib filmlarni tomoshabinlarga tuhfa qilgan ijodkor, keyingi faoliyatida ham bizga o'ziga xos va mos filmlarni taqdim qiladi.



“O‘g‘irlangan bolalik” asari bilan yaqindan tanishamiz!

Kitob muallifi huquqshunos, yuridik fanlari doktori, professor Komil Sindarov. O‘nlab detektiv asarlarni hayotiy tajribalari asosida kitobga tushirgan yozuvchi. Shu paytgacha detektiv kitoblar deganda, hayolimga faqat Agata Kristi, Artur Konan Doyle kelardi. Qisqacha aytganda, “O‘g‘irlangan bolalik” asarini o‘qish jarayonida ruhiyatimda sezilarli o‘zgarish bo‘ldi, deya olaman. Ehtimol, asarda beg‘ubor bolalikning qorong‘u ko‘chalarda yo‘qolishiga olib kelgan ijtimoiy muhit yaratilgani uchundir.

Asosiy qahramonlari, tergovchilardan: Sanjarbek, Rahimjon, Jo‘raboy. Asar ishtirokchilari: Faxriddin, Tohir G‘ofurovich, Faxriddining ayoli, Ergash, Zamir, Barno, Nuriddin, Mo‘minjon.

“O‘g‘irlangan bolalik” deb nomlangani ham uning mazmunini qisman ochmoqda deyish mumkin. Voqealar rivoji Toshkent viloyati Chinoz tumanida joylashgan Yallama qishlog‘ida bedarak yo‘qolgan uch nafar bolaning tergov ishi yuzasidan boradi. Kitobning dastlabki betlarida mohir tergovchi, o‘z kasbining chinakam fidoyisi Faxriddinning pora olganlikda ayblanib, tuhmat bilan qamalishi haqida so‘z boradi. Tabiiyki, ayolining va boshqa oila a‘zolarining bunga munosabati ijobiy bo‘lmaydi. Bunday halol insonning panjara ortida turishi unga bor vujudi bilan ishongan oilasi uchun katta yo‘qotish bo‘ladi. Faxriddinni Surxondaryoda joylashgan qamoqxonada saqlanar ekan, o‘z qo‘li bilan “Pora olganligi”ni yozib berishga majbur qiluvchi choralarga dosh berishiga, vijdonini yoki o‘z jonini saqlashdek ikki o‘t orasida qoladi. Qahramonning o‘z kasbiga nechog‘lik muhabbat qo‘yganini mana shu voqealardan ham bevosita his etish mumkin. Inson kim uchun yashaydi? Kim uchun ter to‘kib mehnat qiladi? Kimni o‘zidan ko‘p asraydi? Albatta oilasini! Faxriddin ham hamma sinovga dosh beradi, ammo ayoli, farzandlari haqida gap ketganda qilmagan jinoyati uchun ariza yozishga va hammasini bo‘yniga olishga majbur bo‘ladi. Bu vaqtda uni qamoqdan ozod etish uchun Toshkentda ko‘pchilik harakat qilayotgani asarda yoritilgan.

Faxriddin va sevimli shogirdlaridan bo‘lgan bosh prokuratura xodimi Sanjarbekka navbatdagi jinoyatni birgalikda fosh etish nasib etmadi. Shu bois, Tohir G‘ofurovichning tavsiyasi bilan Sanjarbek Chinozga yolg‘iz yo‘l oladi. Jinoyat bilan bog‘liq voqealarning boshlanishi mana shu nuqtadan edi. Chinozdagi tergovchi Rahimjon va Yuridik Universitetining 3-bosqich talabasi Jo‘raboy bilan yaqindan tanishib olishgach, ish boshlandi.



Sanjarbek Faxriddin bilan bir qator sarguzashtlarni boshidan kechirib, ancha toblangandi. Tergov jarayonida hamisha bosiqlik bilan xulosa qilishga shoshmasdan tafakkur qilishga urinardi. Yengil ishning o‘zi yo‘q deganlaridek, prokuratura xodimlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalar o‘ziga xos murakkabdir. Asarni mutolaa qilgan kitobxon nafaqat voqealar rivoji bilan tanishadi balki, xat-hujjatlarning ahamiyati, bir qator kerakli faktlar yana hadislarni ham uchratish mumkin.

Rahimjon tuman prokuraturasining tergovchisi sifatida gavdalangan. Baland bo‘yli, oriqlan kelgan betoqat, ammo ish jarayonida Sanjarbekka ancha nafi tegadi. Jinoyat ishida hali dalil, isbot topilmasa-da “bo‘yniga qo‘yadiganlar”dan...

Jo‘raboy Yuridik Universitetining 3-bosqich talabasi, jarayonda bevosita tajriba oshirish uchun ishtirok etadi. Sohasiga katta qiziqish bilan kirishgan bu tirishqoq yigit detektiv kitoblardan o‘qigan va ustozlaridan eshitadigan hamma dakkilarni ijobiy qabul qiladigan bo‘ljak tergovchi. Sanjarbekka kalavanning uchini topishda mayda tahminlarni o‘rganish orqali tergovning to‘g‘ri borishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Men uchun o‘ziga xos yaratilgan bir obraz bor. Bu Faxriddining ayoli. “Temuriylar kutubxonasining siri”da tergovchi ayolining hatto tug‘ilgan kuniga yetib bora olmagan vaziyatlar bo‘lganini shogirdiga gapirib bergan. Bundan kelib chiqadiki, tergovchining ayoli Nazira o‘z navbatida sabr-bardoshli, turmush o‘rtog‘ining kasbiga hurmat ko‘rsatadigan va hamisha sadoqat bilan iffatini saqlaydigan ayoldir. Yorining to‘satdan qamalishi bilan boshlagan voqealarda bu ayol hotirjamlik bilan fikr yuritishi, keskin



vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi bugungi kun ayollariga o‘rnak bo‘la oladi.

Ikki o‘g‘lini yoniga chaqirib otasi qamalib qolganini aytarekan, bevosita farzandlariga qiyin vaziyatlarda tushkunlikka tushmaslikni o‘rgatgandek ko‘rindi menga. Chunki, biz ayollar kezi kelganda hamma narsani oshirib yuborishimiz mumkin: vahimani, talabchanlikni, erkalikni, “sayrash”ni, rashkni va hokazo... Xulq atvorimizni fazilatlar bilan bezash orqali barkamollikka yetamiz. Oila bu – saodat maskani ekanligini yodda saqlagan holda, turmush qurgan ayol hamma narsaning o‘lchovini olish va eng muhimi har qanday vaziyatda yostiqdoshiga ishonib, o‘z iffatini saqlashga o‘rganishi lozim. Faxriddining ayoli ana shunday edi...

Butun qishloq bo‘ylab surishtiruv ishlari jadallashdi. Nuriddinning velosipedini Ergash traktorchi topib olib, tergovchilarga yetkazdi. Bu vaqtda bolaning yo‘qolganiga uch kun bo‘lgandi. Barnoning “Lacetti”si u yo‘qolgan kuni yo‘l chetida benzini tugab o‘chib qolgani ma‘lum bo‘ladi. Ammo, Barno shaxobchadan yelim idishga benzin olib, yo‘lga tushgan va g‘oyib bo‘lgan. Ma‘muraning o‘g‘li Mo‘minjonning yo‘qolishida dastlabki gumondor uning otasi Doniyor (Rossiyaga ketib, boshqa ayolga uylangan) bo‘ladi. Keyinchalik bu tahminlar yo‘qqa chiqadi. Surishtiruv ishlarining boshida deyarli naf chiqmaydi. “Natijaga erishmasligining o‘zi bir natija”-deya sustkashlikka yo‘l qo‘ymaydi Sanjarbek. Bu fazilatni ustozidan o‘rgangan. Voqealar rivojini kuzatar ekanman, muallif bu asarni yozish uchun mavzu doirasida uzoq izlanganini, ancha chuqur yondashganini payqadim.

Jinoyat yuz bergan qishloqdagi ayni vaziyat, unga aholining tegishli xodimlarning munosabati orqali bugungi jamiyatimizning nechog‘lik befarq ekanini asardan ham bilish mumkin. Kitobning mazmun mohiyati esa, butunlay bolalikka bog‘langan. Jamiyatda keng tarqalib ulgurigan oilaviy ajrimlarning salbiy oqibatlaridan biri haqida hikoya qilgan ushbu asarni o‘qigan kitobxonlar mutolaa zavqi bilan birgalikda hayotiy ilmga ham ega bo‘ladilar. Qishloqning soddagina, “Prokuratura” desa o‘zini qo‘yarga joy topa olmaydigan, o‘zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lmagan o‘z navbatida qo‘rqoq kishilar ham xalqimiz orasida uchrab turadi. Buning yaqqol misoli, Ergash traktorchi deyish mumkin.

Muallif Komil Sindarovning asarlariga



MARDONABONU PARDABOYEVA,
“KUTUBXONA-AXBOROT
FAOLIYATI”
TA’LIM YO’NALISHI 3-BOSQICH
TALABASI

murojaat qilgan kitobxon o‘zining huquqiy bilimlari, huquqiy madaniyatini oshirish bilan bir qatorda, hayotiy voqealiklar orqali to‘g‘ri yo‘l tutishning sinoatlari bilan tanishadilar.

“Bolaligini o‘g‘irlatgan” asarning bosh qahramoni Zamir bo‘lib, jinoyatlarning asl motivi bolalik kezarida olgan travmasi tufaylidir. “Qachon uylanasan?”, “Sog‘misan o‘zi?” qabilidagi savollar esa, uning jazavasiga sabab bo‘ladi. Insonning ruhiyati shu qadar ta’sirchanki, umri davomida ne-ne sinovlarni yengib o‘tgan, irodasi toblanganligiga qaramasdan, bitta so‘z yoki gap uning ruhiyatiga salbiy ta’sir etib, butun umrlik og‘riq olib kelishi mumkin.

Psixologiya yo‘nalishiga qiziqadigan kitobxonlarga ham ushbu asarni tavsiya etish mumkin. Faxriddin bilan Sanjarbekning sarguzashtlari bilan tanishar ekanman, kasb mashaqqatlarini sabr bilan yengib o‘tish, har qanday vaziyatda inson vijdoni orqali sinalishi, eng muhimi uddaburonlik har doim ham yolg‘on bilan vaziyatdan chiqish emasligini angladim. Voqealar rivoji u qadar bir-biridan uzoqlashib ketmaydi. Faqat Zamirning o‘qish davrida talabalik yillari bir rus ayolning uyida bog‘laridan xabar olib turish sharti bilan bepul ijarachi bo‘lganini hisobga olmasa...

Uch nafar bolaning izziz g‘oyib bo‘lishi shunchaki bolalarning joniga qasd qilib, ichki a‘zolari sotib yuborganlik bilan tugasa kerak, deb o‘ylagandim. Ammo, yoshi qirqdan oshgan Ergash traktorchining bedarak yo‘qolgan, qotillikning motivini boshqa ko‘chaga olib kiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kundalik hayotimizda biz uchun arzimasek bo‘lib tuyuladigan kishilarning o‘zaro muloqoti davomidagi dilxiraliklar, e’tiborsizliklar kun kelib salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ming afsuski, ajrimlarning soni ortib boryapti, yoshlar orasida oilaga nisbatan mas’uliyatsizlik bilan qarash holatlari ko‘payib ketyapti. Ilm olib, kelajagi uchun mehnat qilayotgan tengdoshlarimizning ko‘p soni xorijga ketish taraddudini ko‘rmoqda. Ustozim Ergash Abduraimovning bir gapi bor edi: “Jamiyatimizda agar hamma xodim o‘z vazifasini bajarsa, ildizi chuqur, hal etib bo‘lmaydigan muammo qolmaydi. Bir xodim o‘z vazifasini yetarlicha bajarmaydi yoki umuman bajarmaydi va buning o‘rniga boshqa odam shu ishni qilishga majbur bo‘ladi. Asosiy vazifalar, katta-katta loyihalar ustida ishlash o‘rniga mayda muammolarni yechish bilan band bo‘lamiz!”. Yuridik adabiyotlarni o‘qish ancha murakkabligi sir emas. Ammo, Komil Sindarovning detektiv asarlari orqali ham huquqiy madaniyat, huquqiy ongini ancha o‘stirish mumkin.

Ibrat

Baxillik kulfatdir

Baxillik – zaharli tikan. Agar u kimga botsa, o‘ldirmay qo‘ymaydi.

Baxil bugun topganini asrab qo‘ysa, ertaga uning qabri bugungi ro‘zg‘oridek qorong‘i bo‘ladi.

Baxillik va shafqat bir ariqdan suv icha olmaydi. Bir vujudida ikkisi yashay olmaydi.



Tohir MALIK,
O‘ZBEKISTON XALQ YOZUVCHISI



Oqil ABDUBARNOYEV,
O'ZDSMI matbuot kotibi

Bulbul

Bulbul ko'rdim qafas ichida,
Ketolmadim yonidan nari.
Qamoqdagi aybsiz mahbusday,
Talpinardi ozodlik sari.

Dardli chiqar har bir nafasi,
Ko'ngli to'lib ketgan g'ussaga.
Yashab turgan oltin qafasi,
Yarashmasdi kichik jussaga.

Odam zoti kulishar goho,
Qah-qahasi bir beso'naqay.
O'zlaricha berishar baho,
Bulbul unday, bulbul bunaqa...



Kimga qiziq uning hayoti,
Unga kim ham qilardi havas.
Bulbul degan bor uning oti,
Uni faqat "sayratishsa" bas!



BEHRUZ O'TKIRQULOV,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

Va'da

To'lqindek urilar yurakka,
Shoirning she'rdagi nolasi,
She'r uning, yoqimli ertakning,
So'ngida topib olgan bolasi.

Ko'nglida ne o'ylar yotadir,
Ba'zida tushunib bo'lmaydi,
She'r yozib tonglari otadir,
She'r tirik, shoir ham o'lmaydi.

Sevadi, sevgidan tonmaydi,
Qolsa ham og'ir bir asorat,
G'amlarga o'rganib qolmaydi,
Shoirning akasi Jasorat.

Qalam-la ko'rsatsa hunarlar,
Muhabbat ulashar har dilga,
Jon taslim qilganda ko'marlar,
Avval yerga, keyin ko'ngilga.

Ilhomdir shoirning kafani,
Yolg'izlik shoirning vatani,
Unutar hayotni, lek unutmaydi,
She'riyatga bergan o'sha va'dani!



MALIKA NABIEYVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

O'tineh

Qaniydi, bir lahza yonimda qolib,
Yuragim bilan suhbat qursayding,
Shunda qadrlarding sevgimni albat,
Yolg'on gapirmasding, shuni bilsayding.

O'yinchoq qilarding tuyg'ularimni,
Ishontirib kularding yolg'onlaringdan,
Achinib gapirma, hijolat bo'lma,
Endi qaytarishga urunib ko'rma.

Asrarding o'zingcha xatolarimni,
Do'q po'psa qilarding, kerakmas deya,
Kulib yurganimni ko'rib gohida,
"Armonsiz, tuyg'usiz, hissiz" - der eding.

Nima foyda topding kuyganlaringdan?
Izimdand kuzatib yurganlaringdan,
Yo armon bo'lib jazoladingmi?
Javobsiz sevgidan kuyganlaringni.


Bir ojiza ayolsan

G'amdan egilsa boshing,
Yomg'ir yuvsa ko'z yoshing,
Sotsa do'st-u sirdoshing,
Ko'kda kezar hayolsan,
Bir ojiza ayolsan.

Nokas ko'ksing tilsa ham,
Sadoqating bilsa ham,
G'amlar ado qilsa ham,
Ko'kda kezar hayolsan,
Bir ojiza ayolsan.

Rozi qilay deb onam,
Ota, juftim, qaynonam,
Munis dardi g'amxonam,
Ko'kda kezar hayolsan,
Bir ojiza ayolsan.

Qilmaysan bir shikoyat,
Senga mehr kifoyat,
Hamrohingdir qanoat,
Ko'kda kezar hayolsan,
Bir ojiza ayolsan.



NARGIZA SHODMONOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH HAMDA
BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH
TALABASI



ELYOR NAZAROV,
SIRTQI TA'LIM SHAKLI
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH HAMDA
BOSHQARISH" YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI

Ramazon bitiklari

Odamiylik hur, ne'mat,
U bozorda sotilmas.
Nomusli inson sha'nin,
Aslo loyga botirmas.

Yolg'on dunyo ko'rganing,
Niqobi ko'p, ochilmas.
Chin do'stim deb yurganing,
Sinov kelsa topilmas.

Arosatga eltguvchi,
Boylik kelib-ketguvchi,
Ishq hammaga yetguvchi,
Taroziqa tortilmas.

Oson yo'lni tanlagan,
Malomatni jamlagan.
Omonatni anglagan,
Xiyonatga botinmas.

Noshukurdir bandasi,
Nafs uning kushandasi.
Halol mehnat qilganga,
Rizq eshigi yopilmas.

Mansab deb qasam ichib,
Baxt o'rniga g'am bichib,
Haqiqatdan voz kechib,
Qochgan inson, botirmas.

Rost shu: mangu turmoqqa,
Kelajakni ko'rmoqqa,
Ko'kda Xudo bo'lmoqqa,
Yerda hech kim qodirmas.

Kim iymonga muftalo,
Uzoqdir undan balo.
Demak, Elyor avvalo,
Odam bo'lgin, shoirmas.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Shuhrat" medali sohibi, ta'bir joiz bo'lsa, Oltiariqdagi har bir kishining saxovatli qahramoniga aylangan Oxunjon Madaliyevning xonadoniga kirib borar ekanmiz, ichkaridan istarasi issiqqina ayol – HABIBAXON opa MADALIYEVA chiqib, qo'lini ko'ksiga qo'yib so'rashdi, uyga taklif qildi. Keng va katta hovlining gir aylana solingan to'rt tomonidagi uylar oq rangda. Go'yoki xonadon egasi qalbi yanglig' toza, keng va oppoq...

San'atkorning umr yo'ldoshi

– **Habibaxon opa, turmush o'rtog'ingiz, Oxunjon Madaliyev hayotni qanday ranglarda ko'rar edi?**

– U kishi uchun dunyoning o'zi – undagi barcha narsa faqat oppoq ranglardan iborat edi. Men u kishining qabihlik yoki yomon niyatli kishilar haqida gapirganini eshitmaganman. Juda oqko'ngil inson edi.

– **Eshitishimcha, ilk tanishuvlaringiz kasalxonada bo'lgan ekan. Talabaligida paxta yig'im-terimi mavsumi pallasida sog'ligida muammo bo'lib, kasalxonaga yotgan va sizni o'sha yerda uchratgan, deyishadi.**

– Bekobodagi tibbiyot texnikumini tugatib, Oltiariq tuman kasalxonasidagi kardiologiya bo'limida hamshira bo'lib ishlar edim. Hamkasbimning to'yida Jumagul ismli qiz bilan tanishib, dugona bo'lib qolgandik. U ham tibbiyot hamshirasi edi. Keyin eshitishimcha, Jumagul bularning qarindoshi ekan. Qaynona onam Jumagulga: "Doktor qiz top, Oxunjonga oberaman", degan ekan. Jumagul men haqimda aytib, rasmimni ko'rsatibdi. Oxun akaning doirachisi Shuhrat Ahmedovning ayoli ham bizning "Polosan" qishlog'imizdan. Shular orqali men haqimda ma'lumot to'plagan. Bir kuni ishdan chiqishimda, transportda ortimdan kelib, qaysi xonadonga kirib ketganimni bilib, surishtirgan edi.

Odatdagiday ertalab navbatchilikni topshirayotsam, kimdir meni chaqirayotganini aytishdi. Chiqib, "Meni kim so'radi?" desam, "Men", dedi kulib turgan yigit. "Men sizni tanimayman", desam, "Men sizni taniyman, tanishaylik, gaplashaylik", dedi. "Yo'q, tanimagan odam bilan nimani gaplashaman?", – deb darrov kirib ketganman.

Shundan biroz vaqt o'tgach, bo'limimizga davolanish uchun yotgan ekan. Navbatchilikda o'tirsam, salom berib o'tayapti. Qarasam, o'sha, bir oy ilgari meni chaqirtirgan yigit. Boshqa bemorlar qatori yaxshi muomala qilib, hamshiralik vazifamni bajarib yuraverdim.

– **U kishini birinchi ko'rganingizda nimalarni his qilgansiz?**

– Tarbiyali, odobli, gap-so'zlari ham o'rnida, chiroyli yigit... Tanimaganim uchun gaplashmasdan ichkariga kirib ketganman o'shanda.

– **Turmush o'rtog'ingizning oilasida kimdir san'atkor bo'lganmi?**

– Yo'q, oilada hech kimning san'atga daxldorligi bo'lmagan. Ammo qaynona onam Oxun akamga homiladorligida Komiljon Otaniyozov, Olmaxon Hayitova, Bobomurod Hamdamovlarning qo'shiq aytganini televizorda ko'rib yoki radioda eshitib qolsa, "Shu xonandalarning qo'shig'ini eshitish uchun ularning eshigini supirib, qozonini yuvib yurishga rozi edim", der ekan. Shu darajada qo'shiqlarini sevib tinglagan ekan. Oxun akam tug'ilgan paytida, qaynona onam qirq ikki yoshda bo'lgan. Demak, ayolning aqli yetuk, yoshi kattaligida farzand ko'rsa, bolasi ham aqli bo'lishi, buning ustiga homiladorligida nimalarga qiziqsa, albatta, farzandiga o'tishi bor gap ekan-da.

– **Hofiz ko'pgina qo'shiqlarida onasiga murojaat qiladi. U kishining onasiga munosabati qanday edi?**

– Men umrim davomida onasini u kishichalik hurmat qiladigan o'g'ilni

ko'rmadim. Onasini shunchalar yaxshi ko'rar edi-ki, poyezddan qolib ketayotgan bo'lsa ham, qaynona onamning duosini olmasdan ketmas edilar. Ketayotganida bir gapni aytar edi: "Onamga yaxshi qarang! Ovqatning oldini u kishiga bering!"

– **Turmush o'rtog'ingizning qanday xislatlarini yaxshi ko'rar edingiz?**

– Hamma xislatlari yoqardi. Rostgo'y edi, hecham yolg'on gapirmagan. Hammamizga mehribon, bolajon, onamizni boshida ko'tarak edi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Opa-singillariga, mahalladagilarga, qarini-



doshlarga ham mehrli, kim kasal bo'lsa Andijon, Farg'ona yoki Toshkentga olib borish kerakmi, o'sha kasalxonaga olib borib, davolatar edi. Ehson qilishni juda yaxshi ko'rar, "o'ng qo'ling berganini, chap qo'ling bilmasin", – der edi.

– **Hofizning oilasi, farzandlari bilan bemalol o'tirgan vaqtlari bo'lganmi?**

– Yo'q, deyarli bo'lmas yedi. Hazillashib, biz ham navbatga yozilsak bo'larkan, der yedik. Mabodo vaqtlari bo'lsa, qaynona onam, akamni olib kelardi va katta davra bo'lib o'tirar edik.

– **Oxunjon Madaliyev sog'lig'ida muammo bo'lib turganida ham, va'da qilingan xizmatiga ketar ekan. Shu to'g'rimi?**

– Ha, "xalq kutib turibdi, bormasam noto'g'ri tushunishadi", – deb vaziyatni to'g'irlab, yetib borar edi.

– **She'r tanlaganda qaysi ijodkorlarning ijodiga ko'proq murojaat qilar edi?**

– U kishi shoir tanlamas, ammo she'r tanlar edi. Chuqur ma'no, mazmunli, odamning yuragiga yetib boradigan she'rlar, kitoblar, gazetalarni yig'ib yurib, shularga kuy bastalar edi.

– **Hofiz "Unutmoq osonmas bizlarni", "Ketaman" kabi mahzun qo'shiqlarni ko'p aytgan. Shunday qo'shiqlar aytganida sababini so'ramaganmisiz?**

– Yo'q, odamlarning dillariga yetib boruvchi qo'shiqlarni aytardi, menimcha. Alloh sevgan bandasining ko'ngliga solar ekan-da...

Yeganin osh demang, yolg'iz ayolning, Shayton tovog'iga qo'lin soladi.

Dasturxon boshida dadasin qo'msab, Yo o'g'li, yo qizi yig'lab qoladi.

deya boshlanuvchi "Yolg'iz ayol" qo'shig'ini aytganida yuragim g'alati bo'lib ketdi, norozilik bildirgandek bo'ldim. Shunda u kishi: "Yolg'iz ayollar ham ko'p ekan,



qo'shiqni eshitib, yig'laganlar ko'p bo'ldi, aytishimni talab qilishayapti", – deb o'zlarini oqlagandek bo'lgan. Ammo, bunday ayriliq bizning ham boshimizga tushishini kim bilibdi deysiz?

– **U kishi uchun haqiqiy boylik nima edi?**

– Farzandlari, qo'shiqlari va qalbidagi mehr-oqibat haqiqiy boyligi edi. Farzandlariga shu qadar e'tiborli edi-ki, safardan kelgach, har bir farzandi bilan alohida suhbatlashar, safarining har bir kuni haqida gapirib berar,

ishlarga qaraysiz", derdil. San'atkorning rafiqasi sabrli bo'lishi kerak, judayam sabrli!

– **Oddiy Oxunjonning ayoli bo'lish yaxshimi yoki mashhur Oxunjonning rafiqasi bo'lishmi?**

– Mashhurlik ham hammaga nasib qilmaydi. Lekin bu kishi mashhur bo'lsa ham aslida oddiy inson edi. Shuning uchun ham hanuzgacha hovlimizdan odam arimaydi. Unutishmagan, unutishmaydi ham.

– **Yangi yaratgan qo'shiqlarini birinchi kimga aytib berar edi?**

– Onasiga aytib berardi, biz ham birga eshitardik. Qaynona onam duo qilardi. Hatto, to'ylarga ketayotganlarida, "bizgayam qo'shiq aytib berib ketgin bolam" desa, hovlini aylanib yurib, qo'shiq aytardi va "Onamning duosi meni asraydi" nomli qo'shiqlarida:

Bir kuni go'zallar qarg'aydi meni, Qarovsiz muhabbat uchun qarg'aydi. Men pinak buzmayman, hadik tortmayman, Onamning duosi meni asraydi – deganlaridek, onaning duosini olib ketardi...

– **Mahalladoshlariga munosabati qanday edi?**

– Nafaqat mahalla, Oltiariqdan to'yga aytishsa bas, bir so'mlarini olmasdan to'ylarini o'tkazib berardi. Qo'lidan kelganicha yordamini ayamadi.

– **Farzandlariga hofizning qanday xislatlari o'tgan?**

– Farzandlalarimizda jufti halolimning og'ir bosiqliqi, sahiyligini ko'raman. Qilichbek va Sanjarbek o'g'illarim otasining yo'lidan borayapti. Katta nabiram Bunyodbek san'at kollejining an'anaviy xonandalik yo'nalishida o'qiyapti. Katta opamning o'g'li, jiyanimiz Nodirbek Xolboyev ham qo'shiqchi bo'lib, elga tanilayapti.

– **Hayotdan olgan saboqlaringiz.**

– Inson sabr bilan yashashi, og'ir kunlarga ham, quvonchli kunlarga ham shukrona bilan yashash kerak. Biz ozgina yashasak ham yaxshi, baxtli va hatto go'zal yashadik. Xato qildim, degan afsuslarim yo'q.

Ming asrda meni yaratdi hayot, Meni so'rab tog'lar qator cho'kdi tiz. Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot Axir men bittaman yagona yolg'iz –

deb kuylagan jufti halolim bugun o'zidan 4 nafar solih va soliha farzandlar, nabiralari, ko'plab shogirdlar va muxlislar qoldirdi.

Eng baxtli inson tani sabrga to'lgan, boriga shukr qilgan insondir, deyishadi. Demak, men baxtliman...

Habibaxon opaning ko'zlarida yosh aylanadi – balki bu faxr, iftixor jolasi, balki armon nolasi...

El suygan, xalqning ko'ngil ardog'idagi san'atkor Oxunjon Madaliyev xonadonidan chiqar ekanman, uning qo'shiqlari qulog'im ostida jaranglaydi:

Soyaman ortingdan ergashgan, Yostiqlar tunlari dardlashgan. Tushingman o'ngingga almashgan, Unutmoq osonmas bizlarni...

Har bir muxlisining qalbida go'zal qo'shiqlardan o'ziga barhayot haykal o'rnatgan hofizning umri boqiydir.

"Ijodiy parvoz" gazetasi uchun maxsus Saodat MATYOQUB qizi suhbatlashdi



Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Baxtli bolalik

Toshkent Fotosuratlar uyida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi "Ofarin" mukofoti sovrindori, fotojurnalist Ravil Albekovning "Baxtli bolalik" nomli 60 ta fotosuratlaridan tashkil topgan ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Ravil Albekov 1958-2001-yillarda "Tong yulduzi" gazetasida va boshqa ko'plab nashrlarda ishlab, bolalar va o'smirlar hayotidagi lahzalarni fotosuratlarida muhrlagan. Uning fotosuratlarida XX asrning oxirgi 40 yilining turli davrlaridagi asosan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy hayotdagi xatti-harakatlari, bolalar ishtiroki bilan bog'liq sport va san'at, ilm-fan va



madaniyatning boshqa jabhalariga doir jarayonlar ishtiroki, kundalik hayotdagi quvnoq daqiqalarni ko'ramiz.

Ekspozitsiyadan o'rin olgan "Qoraqalpog'iston", "Orol bolalari", "Bobo va nabiralar", "Sirdaryo", "Katta o'lja", "Jazirama yoz", "Yosh

kitobxonlar", "Ganjkorlik to'garagi", "Toshkent shahridagi ot sporti klubi", "Muvaffaqiyatli sakrash" va boshqa qator fotolahzalarga chorlanadi. Namoyish qilish uchun taqdim etilgan fotosuratlar, uning qizi Feruza Isayeva tomonidan havola etildi.

"Tillaqosh"

Toshkent Fotosuratlar uyida Kamoliddin Behzod nomidagi rassomlik va dizayn instituti, "Milliy rassomlik va dizayn fakulteti amaliy grafika va badiiy fotografiya" kafedrası: "Kompyuter grafikasi va badiiy surat" ta'lim yo'nalishi mutaxassisligi birinchi kurs magistranti Bobomurodova Maftuna Ravshan qizining "Tillaqosh" nomli shaxsiy ko'rgazmasi tashkil etildi.

Maftuna o'qish yillari ko'plab respublika tanlov, musobaqa, ko'rgazma konferensiyalarda o'zining ijodiy ishlari bilan ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Mazkur "Tillaqosh"

nomli fotoko'rgazma ekspozitsiyasida Maftunaning oxirgi yillarda olib borgan ijodiy izlanishlari namoyish etilmoqda. Ma'lumki O'zbekistonda xotin-qizlarning milliy liboslari va amaliy bezak san'ati bo'lgan buyumlari zamonaviylashgan.

Ekspozitsiyada xotin-qizlarning o'tmish tariximizda amal qilgan Qoraqalpog' Respublikasi, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlarining xilma-xil liboslari, amaliy bezak san'ati buyumlari bilan bezangan siymolarining rangli fotosuratlarini o'rin olgan.

Bilib qo'ygan yaxshi

Ginness rekordlar kitobi nega aynan shunday nomlanadi?



Ginness o'zi kim? Kitobning yaratilish tarixi. Irlandiyalik pivo ishlab chiqaruvchi Artur Guinness 27 yoshida pivo biznesiga qo'l uradi. U "Ginness" nomi bilan o'zining pivo zavodini tashkil qiladi. 1759-yilda Artur Ginnes Dublin shahri (Irlandiya)da pivo zavodini qurgan. 1833-yilga kelib, u Irlandiyadagi eng yirik pivo zavodiga aylanadi.

"Ginness" pivo zavodining ijrochi direktori Hyu Biver, 1951-yilda ovga chiqadi. Ov paytida oltin tusli rjanka qushini mo'ljalga ola olmaydi

va qolgan ovchilar bilan bu qush Yevropadagi eng tezuchar qushligini aytib, bahslashib qoladi.

Oradan 3 yil o'tgach, Hyu Biver yana shu mavzuda bahslashadi. Bu gal esa u rjanka qushining uchish tezligini Shotlandiya kakligi bilan taqqoslaydi. O'sha payt Hyu Biverga ajoyib g'oya keladi. U javobsiz va mavhum ko'ringan bahslarni hal qilishga yordam beradigan yagona manba yaratilishi kerakligi haqida o'ylab qoladi.

Hyu Biverning orzusini amalga oshirishga

"Ginness" pivoxonasining yana bir xodimi – yengil atletikachi Kristofer Chatvey yordam beradi. Chatvey universitetidagi do'stlari Norris va Ross Mak Uayrterlarga o'zining fikrini aytadi. Ular hamkorlikda, o'zlarining kitob yaratish bo'yicha g'oyalarini "Ginness" pivoxonasi rahbariyatiga taqdim etishadi. Rahbariyatga ma'qul keladi va ular bu uchun mablag' ajratib berishadi.

Zoolog, fiziolog, meteorolog, botanik va boshqa olimlarga minglab xatlar yuboriladi va ma'lumotlar tizimlashtiriladi. Barcha ma'lumotlar saralab olingach, 1955-yil 27-avgustda Artur Guinness sharafiga nomlangan 198 betlik kitobning birinchi nusxasi chop etildi. Atiga 3-4 oy ichida bu kitob Buyuk Britaniyada 1-raqamli bestsellerga aylandi.

Hozirgi kunga kelib, "Ginness rekordlari kitobi" butun dunyoda ingliz tilida chop etiladi. Undan tashqari, yana 37 tilga tarjima qilingan.



TAQVODOR SEVGISI...

*Tirik ekan, nega tashlab ketavermading?
Mendan nafsrog'i, ne husniga oshiq,
Mendan yoniqrog'i tortmadi sani,
Endi nigohingga bor jannat ochiq.
Seni majnun etib bir yor go'zali,
Nega meni tashlab ketavermading?*

(Zulfiya)

Qishloq uncha katta emas, piyoda bir marotaba aylanish uchun uch soatcha vaqt ketadi. Jasurning uyidan ikki uy narida Lobarning uyi joylashgan Anhor esa qishloq chetidan oqib o'tgan. Talabalik oltin davrim deya yurgan Jasurning orzulari osmon. Hozir u shaharda yashamoqda, biroq xayolan qishloqdagi nozanin Lobar, uning ifori ila sarmast edi...

Quyosh ufqqa asta yonboshlagancha zarrin nurlarini ikki qalb tomonga sochar, o'z nurlarini sochgancha uyquga ketar. Osmonda esa son-sanoqsiz yulduzlar raqsga tushayotgan paridek mavjlanar. Oysuluv bo'lib atrofini sayr etadi. Shu tobda anhor bo'yida bir-biriga intiq ikki vujud, bir-biriga ko'z qirini tashlab, jilmayib borishar, manzildan uzoqlashgancha bir-birini quvlab, soy yoqasida oy misli suzishardi. Shu tariqa yulduzlarga boqqancha ko'prik ustida xotirlarni, o'tgan kunlarning shirin ammo, kulguli damlarini eslashga urinishadi.

Aprel boshi his-tuyg'ularning ilk damlari, sahardanoq Jasur ko'zlari uyqusizlikdan qizargancha, "Notebook" va kitoblar solingan sumkasi bilan talabalar shaharchasidagi tungi kutubxonadan chiqar ekan, ko'cha ancha salqinlagan, kechasi maydalab yog'ib o'tgan yomg'irning sasi dimog'ga uriladi. Quyosh esa ufqdan, bulutlar orasida ko'rinish ko'rinmay bosh ko'tarayotgani, xuddiki endigina uyg'ongan qizaloqdek nozlanadi.

Andijon do'ppisini kiygan yigit masjidga qadam ranjida qildi. Ilm yo'lida sobit turishini, Yaratgandan ilmiga amal qilguvchilar qatorida bo'lishini duolari ila so'radi. So'ng masjiddan nari magazinga o'tib shahardagi buvisi uchun u bu narsa xarid qildi. Kechga arafa oshini yeyish uchun buvisiga osh qilishini iltimos qildi. Yo'l-yo'lakay bog'chaga ketayotgan bolalarga shirinliklar ulashdi. Universitetga borish uchun avtobusga chiqdi, biroq keyingi bekatdayoq avtobusdan tushib qoldi. Pochtaga o'tib, yaqinlarimdan kelgan maktub bormikin? – deya xayol qildi. Buni qarangki, qishloqdan singlisi noma yozib jo'natgan ekan. Shoshib maktubni o'qimoqchi bo'ldi. Keyin esa, oliygohga borishi esiga tushib, kiyinish uchun yotoqxonaga yurdi. Talabalar turar joyi eshiklari lang ochiq, barcha talabalar o'qishga chiqib ketishgan-u, hamma yoq jim-jit holatda, go'yo suv quygandek.

"Universitetga kechkib borsam ham mayli, ammo borish kerak, oraliq nazorat ishlari boshlangan. Bahoga ulgurmay qolaman-ku", – deya xayoliga qaysi fanlar borligi-yu, qaysinisidan imtihon bo'lishi Jasurning miyasiga ajralmas ipdek birin-

IZZATILLO OLIMOV,
"KUTUBXONA AXBOROT
FAOLIYATI"

TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH
TALABASI

ketin tizila boshladi. So'ng Jasur shaxdam qadamlar bilan xatni keyin, darsdan so'ng o'qimoqlikni reja qilib yostig'i ostiga joyladi-da, sochlarini tarab, o'zini baxtli sezgandek dars mashg'ulotlariga yo'l oldi.

Jasurning o'qishdagi muvaffaqiyatlari birin-ketin o'z qirralarini ocha boshladi. Oliyohoda yoshlar ittifoqi kordinatori, so'ng parlament a'zosi bo'ldi. Beixtiyor, qalban suyundi. Qishloqdagi yaqinlariga kechga borib sog'inchli nomasini bitishga ahd qildi. Ochiq ko'ngil, samimiy odamning yo'llarini ham Allohning o'zi to'g'ri qilishiga yana bir bora Jasur iqrar bo'ldi. Shunday qilib, u enasi iftorlikda arafa oshini yeb, ertaga Ramazon hayiti, bobosi bilan hayit namoziga chiqishini tayin qilib, yotoqxonaga qaytdi. Xonasiga keldi, yostig'i ostiga qo'ygan nomani o'qishga tutindi. Sog'inchli satrlar shunday boshlanar edi:

"Assalomu alaykum, salomatmisiz akam! Sizni judayam sog'indik. Ota-onamiz sog'-salomat, sizga ertaga hayit kuni telefon qilishar ekan. Bobo, enam yaxshimi? Bilasizmi aka? Sog'inchning totli firog'i qiynamoqda. Hozir ushbu nomamni bitar ekanman, sizni eslab o'tkan kunlarimiz, bolalik onlarimizning beg'ubor davrlarini eslab yig'lagim keldi. O'sha davrlar judayam maroqli edi, maktabda meni tarafimni olib, Sarvar bilan urushib qo'lingiz singanichi? Bari-bari eslashga arzigulik... Ha, aytgandek sizga qo'shni qiz Lobardan salom".

Shirintoy singlingiz, Voliydabegim.

Jasur o'yga tildi. "Qo'shni qiz... Lobar, nahotki u ham meni eslabdi! Demak, salom aytganmi? Yodga olgan". Shu kabi mehrlilik, ammo yolg'izlik ila sahardayoq qilgan niyatlari og'ushida javob maktubini yozmoqqa jazm etdi. Bazo'r yonib o'z shulasini atrofga taratayotgan fonar yorug'ida qalam ham oppoq qog'oz sirtini erkalagan kabi yurib ketdi. Qariyb oradan ikki oy o'tdi hamki, yozgan nomasiga javob kelmadi. Jasur o'zini telbanamo sezar, bildiki, u qiz boshqasiga unashitirilgan. Endi u haqida o'ylash befoyda. Duolarida, zikrlarida so'ralayotgan qiz, nahotki boshqasi uchun atalgan bo'lsa...

Jasur mahzun bo'lgan ko'yi, mungli lahzalar ila o'sha zahoti masjidga borib, Allohga qaytdi. Yoqishga urungan odamlari bilan Alloh uni sinadi. O'sha odamlar bilan uning ko'nglini sindirdi. Jasur qaytib nomahramlarni sevmalikni o'ziga ahd deb bildi.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDOSHEV



Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 1.07.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda